

Ilm-fan sohasidagi hamkorlik yuksalmoqda

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov tomonidan 2018-yil 30-martda tasdiqlangan “O‘zbekiston va Buyuk Britaniya ilmiy markazlari o‘rtasida 2018-2022-yillarga mo‘ljallangan hamkorlikka oid yo‘l xaritasi”ning 19-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida 2018-yil 24-sentabr kuni O‘zR FA Botanika institutida Kembrij universiteti doktori, o‘zbekistonlik Temur Yunusov tomonidan “Global iqlim o‘zgarishining qishloq xo‘jaligiga ta‘siri” mavzusidagi ma‘ruzasi tinglandi. Unda institut direktori akademik K.Sh.Tojibayev, laboratoriya mudirlari hamda institut ilmiy xodimlari ishtirok etdi.



Temur Yunusov ma‘ruzasida atmosfera havosi haroratining ko‘tarilishi natijasida, xususan, O‘zbekistondagi Orol dengizisi suvining keskin kamayishi, Perudagi muzliklarni erishi, AQSHning Kaliforniya shtatidagi Orovil ko‘li hamda Argentinadagi Marchikita ko‘li suvini kamayishi, Amerikada 2017-yilda bahorning erta kelishi, butun dunyoda havo haroratining o‘zgarishi, uning natijasida qishloq xo‘jaligi ekinlari, asosan, insonlar eng ko‘p iste‘mol qiladigan ekinlar - makkajo‘xori va bug‘doy hosildorligining kamayishiga olib kelganligi haqida batafsil malumotlar berildi.

Institut direktori K.Tojibayev Kembrij universiteti doktori, o‘zbekistonlik Temur Yunusovga estalik sovg‘asi sifatida institut ilmiy xodimlari va chet ellik mutaxassislar bilan hamkorlikda chop etilgan “Botanical geography of Uzbekistan” va “Flora of the Western Tiyen Shan” nomli kitoblarni taqdim etdi.

